

Neft mahsulotlari yetkazib berish shartnomasi № 5

Bug'dod shaharchasi

24-yanvar 2022-yil

Keyingi o'rnlarda "Ta'minotchi" deb ataluvchi "Farg'ona Neft bazasi" MCHJ Furgat filiali nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshligi U.Yusupov bir tomonidan va "Iste'molchi" deb ataluvchi Buvayda tuman irrigatsiya bo'limi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi raxbari Y.Nazarov ikkinchi tomonidan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Ta'minotchi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Neft-gaz tarmog'ining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birlinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 4-apreldagi PQ-4664-soni qaroriga asosan **Respublika xom ashyo** birjasi savdolarida yutib olgan Buxoro Neftni qayta ishslash zavodi MCHJning neft mahsulotlarini o'tgan haftada birja savdolarida shakllangan o'rtacha kotirovka narxlarida, Farg'ona Neftni qayta ishslash zavodi MCHJ va boshqa ishlab chiqaruvchilar, shuningdek importyorlardan sotib olingan Neft mahsulotlarini birja savdolarida sotib olingan narx ustiga o'zining ustamasini qo'yib "Iste'molchi"ga sotadi.

1.2. Shartnomaning taxminiy umumiyy summasi 39919786.44 so'mni tashkil qiladi.

Neft mahsulotlari nomi	O'ichov birligi	1 tonnasi narxi	Miqdori, tonna	Umumiyy summasi
Avtobenzin Al-80	Tn	11 389 776	0.2	2 277 955.20
Dizel yonilg'i Eko	Tn	11 546 574	3.26	37 641 831.24
Jami:	X	X	X	39 919 786.44

1.3. "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, "Iste'molchi" esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.4. "Ta'minotchi"ning ("Farg'ona Neft bazasi" MCHJ yoki uning filiallarining) tasarrufida mavjud bo'lgan rezervuarlarda (AYOQSH yoki FYOTSHlarida) "Iste'molchi"ning 1 tonna neft mahsulotlarini saqlaganligi, "Iste'molchi"ning buyurtmasiga asosan uning texnikalariga neft mahsulotlarini quyib berganligi uchun "Iste'molchi" "Ta'minotchi"ga 1 sutkaga 3580 so'm miqdorida xizmat haqi to'laydi.

"Ta'minotchi" ("Farg'ona Neft bazasi" MCHJ yoki uning filiallari) mayjud bo'lgan rezervuarlarda "Iste'molchi"ning neft mahsulotlarini saqlaganligi, "Iste'molchi"ning buyurtmasiga asosan uning texnikalariga neft mahsulotlarini quyib berganligi uchun "Iste'molchi"ga har oy yakuni bo'yicha alohida hisob-varaqa (schyot-faktura) taqdim etadi.

"Iste'molchi" hisob-varaqa (schyot-faktura) olgar kundan boshlab 10 (o'n) kun mobaynida to'lovni amalga oshiradi.

1.5. "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ning Neft mahsulotlarini saqlash jarayonida neft mahsulotlari turidan kelib chiqib "Neft, gaz kondyensati va Neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, tashish, berish va hisobga olish bo'yicha Yo'riqnomalar"ga asosan har oy yakuni bo'yicha "Iste'molching" neft mahsulotiga "tabiiy yo'qotish" qo'llaydi (tabiiy yo'qolgan neft mahsuloti "Ta'minotchi" tomonidan qoplab berilmaydi).

II NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ning buyurtmasi olingan kuni sotilishi so'ralsan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. "Iste'molchi" mazkur narxlar

asosida buyurtmadagi Neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarini amalga oshiradi.

2.2. Sotiladigan Neft mahsulotlari uchun to'lovlar "Ta'minotchi"ning bankdag'i hisob raqamiga pul o'tkazish, plastik kartochkalar va naqd pul shaklida amalga oshiriladi.

III NEFT MAHSULOTLARINI SOTISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari "Ta'minotchi"ning ombordan yoki unga qarashli filiallardan "Iste'molchi"ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralsan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda sotiladi.

3.2. Neft mahsulotlari "Iste'molchi"ga uning so'roviga asosan "Ta'minotchi"ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neft maxsulotlarini shuningdek "Iste'molchi" tomonidan barcha yong'in va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijara olingen maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish xarajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari omor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalari bo'sh ketgan hollarda "Ta'minotchi"javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari quyilgan avtotsisternalar (Iste'molchi"ning avtotransportida olib ketish holatlari bundan mustasno) "Iste'molchi"ning talabiga binoan "Ta'minotchi"ning yoki uning bo'limmlari tomonidan amalda qo'shilishiga me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

IV NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor bo'yicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va xalq iste'moli mollarini miqdor jihatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va xalq iste'moli mollarini sifat jihatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yo'riqnomalar hamda boshqa me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

4.2. "Iste'molchi"ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtida mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini sotilganligi to'g'risidagi tegishli hujjatlari "Ta'minotchi"ning omborida yoki unga qarashli filiallarda rasmiylashtiriladi va ularni "Iste'molchi" tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik huquqi tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon yetish xavfi "Ta'minotchi" ombori yoki AYOQSH hududidan chiqqan vaqtida boshlab "Iste'molchi"ga o'tadi.

V NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini sotishni kafolatlaydi. Sotilayotgan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-sod Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiha oidi rasmiylashtirilgan xujjalarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda "Iste'molchi" ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish huquqiga ega.

VI TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuniga binoan javobgar bo'ladi.

6.2. "Ta'minotchi" neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik, muddatlar kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyan to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqjibatida yetkazilgan zarami qoplashdan ozod etmaydi.

6.3. "Ta'minotchi" neft mahsulotlari sifatini o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda "Iste'molchi"ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'limgan neft mahsuloti qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. "Iste'molchi" belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan Neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun "Ta'minotchi"ga olinmagan mahsulot umumiyligi qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.5. "Iste'molchi" o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarini qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yordariga to'liq amal qilinishiga javobgardir.

6.6. "Iste'molchi" yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarida tutilgan tartibda javob beradi.

6.7. Tomonlar hamda ularning vakillari mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjalaringa zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rlishiga kafolat beradi.

VII FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

VIII BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'tasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iqtisodiy sudlar orgali hal etiladi.

8.2. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng huquqiy kuchga ega.

8.4. Shartnoma tomonlar o'tasida imzolangan kundan kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

IX TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

"TA'MINOTCHI"

"Farg'onha Neft bazasi" MCHJ

Furqat filiali

Manzili: Bag'dod shaxarchasi

"ISTE'MOLCHI"

Buvayda tuman irrigatsiya bo'limi

Manzil: Buvayda tumani Yangiqo'g'on q.



X.Olimjon ko'chasi 123-uy
SQB YAshnobod filiali
x/r: 22604000700215485707(ustav)
2321000100215485002 (kredit)
MFO: 00432

INN: 201104250 tel: 73479-20-34

OKONX: 7115

Raxbar:  U.Yusupov
M.O'

Tel: 998-73-529-21-73
Shkv: 100022860302127042402170001
x/r: 23402000300100001010
INN: 305081008
MFO: 00014
Markaziy bank Toshkent sh.

Raxbar _____ Y.Nazarov
M.O'



"Farg'onan Neft bazasi" MCHJ Furqat filiali
SPYETSIFIKATSIYA

	Neft mahsulotlari nomi	O'chov birligi	1 tonnasi narhi	Miqdori, tonna	Umumiy summasi
1	Avtobenzin AI-80	tn	11 389 776	0.2	2 277 955.2
2	Dizel yonilg'isi Eko	Tn	11 546 574	3.26	37 641 831.24
	Jami:	X	X	X	39 919 786.44

Izoh: Dizel yoqilg'isining narhi O'zbekiston Respublikasi tovar xom ashyo birjasida --- -2022 - --- -2022 yil kunlardagi (o'tgan xasfidagi) shakllangan o'rtacha birja kotirovka narhiga Neft baza ustamasi qo'shib yozildi. Ushbu narh _____. 2021 yil kuni gacha amal qiladi. Avtobenzin AI-80 mahsulotiga birja elyektron savdolari orqali sotib olingan mahsulot narhiga Neft baza ustamasi qo'llanildi.

Umumiy jami: 39919786.44 (o'ttiz to'qqiz million to'qqiz yuz o'n to'qqiz ming yeti yuz sakson olti) so'm 44 tiyin

Mazkur spyetsifikatsiya ikki nushada tuzildi.

"TA'MINOTCHI"

**"Farg'onan Neft bazasi" MCHJ
Furqat filiali**

Manzili: Bag'dod shaxarchasi
X.Olimjon ko'chasi 123-uy
SQB YAshnabod filiali
x/r: 22604000700215485707(ustav)
23210000100215485002 (kredit)
MFO: 00433
INN: 201104250 tel: 78-479-20-34
OKONX: 71150
Raxbar:  U.Yusupov
M.O: 

"ISTE'MOLCHI"

Buvayda tuman irrigatsiya bo'limi
Manzil: Buvayda tumani Yangiqo'g'on q.
Tel: 998-73-529-21-73
Shxv: 100022860302127042402170001
x/r:23402000300100001010
INN:305081008
MFO:00014
Markaziy bank Toshkent sh.

Raxbar:  Yo.Nazarov
M.O'



ХУҚУҚИЙ ХУЛОСА

Ушбу шартномайни амалдаги
Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси ва
"Хўжалик юртумчи субъектлар фюзилиятининг
шартномалари" - хуқуқий базаси тўғрисидаги
Конуни талабларига мос келади. Ушбу шарт-
номани инзоматида  N.Axumtashew

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

1. Loyihaning turi va soni

Shartnoma № 5

2. Loyihaning nomi

Neft mahsulotlari yetkazib berish shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Buvayda tuman irrigatsiya bo'limi tomonidan 24.01.2022

Keyingi o'rnlarda "Ta'minotchi" deb ataluvchi "Farg'ona Neft bazasi" MCHJ Furqat filiali nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshlig'i U.Yusupov bir tomonidan va "Iste'molchi" deb ataluvchi Buvayda tuman irrigatsiya bo'limi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi **rahbari Y.Nazarov** ikkinchi tomondan, **Neft mahsulotlari yetkazib berish** (Avtobenzin AI-80, Dizel yonilg'isi Eko) bo'yicha umumiy qiymati 39 919 786.44 so'mlik 5-sonli **Neft mahsulotlari yetkazib berish shartnomasini tuzmoqdalar.**

Ushbu shartnoma loyihasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun va O'zbekistan Respublikasi Fuqarolik Kodeksi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiqli.

2022-yil 26-yanvar

Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti



S.Axmadaliyev